



NAMANGAN VILOYATING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2021-YIL YANVAR-NOYABR







Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
(2021- yil yanvar-noyabr)

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalaridan 12 371,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 116,4 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (84,1 %) ni tashkil etdi.



B– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C–Ishlab chiqaradigan sanoat D–Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, E–Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiyatizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish, FHI*% da
(2021- yil yanvar-noyabr)




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘shining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 17,9 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashning –11,9 % ga o‘shishi kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 3,3 % ga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining-48,2 % ga kamayganligi kuzatildi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da (2021- yil yanvar-noyabr)




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 54,5 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

(yil boshidan I- IX oylar, % da)

2020- yil, % da

2021- yil, % da






Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2021- yil yanvar-noyabr)

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-noyabr | 2021- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---------------------|-------------------------|-------------------------|-----------|
| Shag'al , ming t. | 0,0 | 0,0 | 0,0 |




Ishlab chiqaradigan sanoat (2021- yil yanvar-noyabr)




2021-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 239,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,6 % ini tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da
(2021- yil yanvar-noyabr)




2020 Y. FHI, % da




2021 Y. FHI, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,7 % ni (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida - 2,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,4 % (5,5 %), o'rta-quyi texnologiyali - 13,7 % (11,8 %) va quyi texnologiyalisi - 78,3 % (80,0 %) ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



Quyi texnologiyali



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 37,8 % (2020-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 21,7 % (2020-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,2 % (2020-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 90,1 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,3 % (2020-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 64,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,2 % (2020-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %) ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da
(2021- yil yanvar-noyabr)


2021-yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 50,0 ming tonna paxta tolasi (2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 49,7% ga o'sgan), 57,3 ming tonna omuxta yem (0,7 %) ishlab chiqarilib kamaygan o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Yumshoq bug'doy va spelta uni



Paxta tolasi



Omuxta yem




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish (2021- yil yanvar-noyabr)

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-noyabr | 2021- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|-------------------------|-------------------------|-----------|
| Paxta tolasi, ming tonna | 33,4 | 50,0 | 16,4 |
| Aroq – ming litr 100 % spirt | 293,6 | 0 | -293,6 |
| Konyak spirti – ming litr 100 % spirt | 0 | 0 | 0 |
| Vino, ming litr | 773,3 | 0 | -773,3 |
| Un, ming tonna | 118,3 | 114,7 | -3,6 |
| O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna | 16,9 | 13,8 | -3,1 |




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (2021- yil yanvar-noyabr)

mlrd. so‘m



FHI, % da




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1937,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (11,9 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,9 % ga ortganligi kuzatildi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yil boshidan I- XI oylar, % da)

2020- yil, % da



2021- yil, % da




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-noyabr | 2021- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|-----------------------------------|----------------------------|----------------------------|--------------|
| Elektroyenergiya, mln.kVt/s | 3723,0 | 6098,5 | 1246,6 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 61,2 | 67,5 | -9,4 |





Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 140,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yil boshidan I- XI oylar)



| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-noyabr | 2021- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|--|-------------------------|-------------------------|-----------|
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm | 46,9 | 74,2 | 38,1 |


| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar- noyabr | 2021- yil yanvar- noyabr | Farqi +/- |
|--|--------------------------------|--------------------------------|--------------|
| qava suvlarni shlami, mlrd.so‘m | 1,4 | 10,5 | 5,0 |
| Shahar xo‘jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar, mlrd. so‘m | 18,8 | 20,9 | -1,0 |
| To‘qimachilik chiqindilari, tonna | 3,0 | 40,0 | 31,0 |
| Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t | 0,0 | 0,0 | 0,0 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 70,3 % ga, oqava suvlarni shlami 2,4 martaga ortganligi, hamda shahar xo‘jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 5,5 % ga kamayganligi kuzatildi.




Iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5519,6 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 120,1 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 55,8 % ni tashkil etdi.




Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlabchiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 45,4 % ni, shuningdek, Namangan tumani 8,2 % ni, To'raqo'rg'on tumani 7,7 % ni, Kosobsoy tumani 6,7 % ni, Chust tumani 6,5 % ni, Uchqo'rg'on tumani 5,1 % ni hamda Pop tumani 3,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (117,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Uychi (145,9 %), Kosonsoy (140,9 %), To'raqo'rg'on (150,9 %), Namangan shahar (120,3 %), Chortoq (130,1%) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-noyabr


Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 35,4 % ni, shuningdek, Namangan tumani 13,6 % ni, To'raqo'rg'on tumani 12,6 % ni hamda Kosonsoy tumani 10,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Chust (117,2%), To'raqo'rg'on (165,7 %), Kosonsoy (149,2 %) hamda Pop (131,5 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2021- yilning yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 48,5 % ni, shuningdek, Uchqo'rg'on tumani 9,8 % ni, Namangan tumani esa 10,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida

eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumani (229,2 %), Uychi tumani (160,9 %) hamda Chortoq tumanida (174,9 %) qayd etildi.



1 969,7 mlrd. so'm
2020- yil yanvar- noyabr

2 365,5 mlrd. so'm
2021- yil yanvar- noyabr








mlrd. so'm

o'sish sur'ati

• **Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab**

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (9 551,7 ming so'm), Namangan shahrida (7 572,4 ming so'm), Uchqo'rg'on (4 411,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4 279,5 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda. Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (908,5 ming so'm), Chortoq (1 177,5 ming so'm), Pop (1 747,8 ming so'm) va Kosonsoy (2 376,1 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.




o'sish sur'ati
ming so'm

• Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,4 % i) hamda Namangan (8,2 %), To‘rao‘rg‘on (7,7 %), Uchqo‘rg‘on (5,1 %) va Uychi (4,3 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Yangiqo‘rg‘on (2,1 %) hamda Norin (1,7 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.



• Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra)

Bugungi kunda viloyatda 7018 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2612 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 37,9 % i) Namangan shahriga, 556 tasi (7,8 %) Uychi tumaniga, 518 tasi (7,6 %) Chust tumaniga, 532 tasi (7,4 %) Kosonsoy tumaniga, 517 tasi (7,3 %) Namangan tumaniga, 458 tasi (6,5 %) To‘raqo‘rg‘on tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2020- yil

1 313- dona

2021- yil

1 566 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil

6 581- dona

2021- yil

7 018 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan